

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

VOLUME II | ISSUE 3 | MARCH-APRIL | 2024

ISSN: 2181-4031



Available online at www.imfaktor.com

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-4 СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ- II, НОМЕР-3-4

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-3-4

ТОШКЕНТ – 2024

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

№ 3-4 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2024-3-4>

Бош муҳаррир:

Тураев Б.

– фалсафа фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Расулова Д.

– иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Таҳририят аъзолари:

1. Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент
2. Ходжаметова Гулчира Илишевна – тарих фанлари номзоди, профессор
3. Ҳайдаров Ўрал Ахмадович – иқтисодиёт ф.б.ф.д (PhD), доцент
4. Мусаев Джамалиддин Камалович – юридик ф.б.ф.д (PhD), доцент
5. Жамолдинов Хумоюн Бахтиёрбек ўғли – юридик ф.б.ф.д (PhD), доцент в.б
6. Узакова Зарина Фуркатовна – социология ф.б.ф.д (PhD), доцент
7. Мамадияров Дилшод Уралович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент
8. Тўраев Шавкат Нишонович – фалсафа фанлари номзоди, доцент
9. Бердиева Гулмира Аминовна – тарих фанлари номзоди
10. Гаипов Жасур Бахром ўғли – иқтисодиёт ф.б.ф.д (PhD)
11. Сохибова Лола Жонибоевна – фалсафа ф.б.ф.д (PhD)
12. Шарипов Дилшод Бахшиллоевич – сиёсатшунос, эксперт
13. Содиржонов Мухриддин
Махамадаминович – социология ф.б.ф.д (PhD)
14. Саттаров Дилшод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент
15. Турақулов Акмалжон Анварович – фалсафа ф.б.ф.д (PhD)
16. Каримов Бозарқул Худдайбердиевич – фалсафа фанлари номзоди

“Фундаментал тадқиқотлар” илмий-амалий журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 7.5 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

TOIROV Ravshan Rustam o'g'li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
“Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishi”

magistratura tinglovchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10935850>

HUQUQ USTUVORLIGI INDEKSIDA O‘ZBEKISTONNING O‘RNINI YAXSHILASH: MUAMMO VA YECHIMLAR

ANNOTATSIYA

Xalqaro reyting va indekslar mamlakatning jahon hamjamiyatidagi o‘rni va mavqeini belgilab berishga xizmat qiladi. Jahondagi har bir mamlakat xalqaro reyting va indekslarda yuqori o‘rin egallashga, mamlakatda olib borilayotgan turli jabhalardagi islohotlarni jadallashtirishga va ularga xolis baho berishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada huquq ustuvorligi indeksi, uning ahamiyati xususida fikr yuritilgan. Huquq ustuvorligi tushunchasi, uning kelib chiqish tarixi haqida ma’lumotlar berilgan. World Justice Project xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan barcha 8 indikator bo‘yicha O‘zbekistonning amaldagi o‘rni masalasi muhokama qilingan. Mazkur indeks ko‘rsatkichlari bo‘yicha O‘zbekistonning o‘rnini yanada yaxshilash yuzasidan fikr-mulohazalar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: huquqiy davlat, huquq ustuvorligi indeksi (Rule of Law Index), huquq ustuvorligi, Jahon odil sudlov loyihasi (World Justice Project), korrupsiyaning mavjud emasligi, indikatorlar.

UZBEKISTAN'S PLACE IN THE RULE OF LAW INDEX IMPROVEMENT: PROBLEMS AND SOLUTIONS

ANNOTATION

International ratings and indexes serve to determine the place and position of the country in the world community. Every country in the world serves to take a high place in international ratings and indexes, to accelerate the reforms in various aspects carried out in the country, and to give them an impartial assessment. In this article discusses the rule of law index and its importance. The concept of the priority of law, the history of its origin is given. The World Justice Project, an international non-governmental organization, discussed the current role of Uzbekistan in all 8 indicators. Opinions were given on how to further improve the position of Uzbekistan according to the indicators of this index.

Key words: rule of law, rule of law index, rule of law, World Justice Project, absence of corruption, indicators.

МЕСТО УЗБЕКИСТАНА В ИНДЕКСЕ ПРИОРИТЕТА ПРАВА УЛУЧШЕНИЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

Международные рейтинги и индексы служат для определения места и положения страны в мировом сообществе. Каждая страна мира служит тому, чтобы занять высокое место в международных рейтингах и индексах, ускорить проводимые в стране реформы в различных аспектах и дать им беспристрастную оценку. В этом в статье рассматривается индекс верховенства права и его значение. Дано понятие приоритета права, история его возникновения. Международная неправительственная организация World Justice Project обсудили текущую роль Узбекистана по всем 8 показателям. Были высказаны мнения о том, как в дальнейшем улучшить положение Узбекистана по показателям данного индекса.

Ключевые слова: Верховенство права, индекс верховенства права, верховенство права, World Justice Project, отсутствие коррупции, индикаторы.

Yurtimizda qonun ustuvorligini ta'minlash hamda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka tadbiiq qilish, shuningdek qonun ustuvorligi indeksida natijalarni yaxshilash bo'yicha tizimli islohotlar muntazam amalga oshirib kelinmoqda. Binobarin, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida belgilanishicha, O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat [1].

Bundan anglashiladiki, O'zbekistonning asosiy maqsadi demokratik, huquqiy davlat parpo etish va unda fuqarolarning huquqlarini to'laqonli ta'minlashdir.

Aytish joizki, Huquq ustuvorligi, eng avvalo, huquqiy mazmunga ega bo'lgan qonunlar mavjudligini hamda davlat hokimiyatining huquq bilan bog'liqligini taqozo etadi. Huquqiy davlatning ham bosh g'oyasi – uning huquq bilan bog'langanligidir. “Rule of law” atamasi ingliz tilidan tarjima qilingada “huquq hukmronligi”, “huquq ustunligi”, “huquq ustuvorligi” ma'nolarida kelib, huquqiy davlatchilikning muhim sharti va omili sifatida qaraladi.

“Huquq hukmronligi” yoki “huquq ustuvorligi” doktrinasining asoschisi sifatida Oksford univesiteti professori Albert Daysi (1835–1922) e'tirof etiladi. A. Daysi huquq hukmronligining mazmuniga quyidagi tushunchalarni kiritgan:

- “huquq hukmronligi” hokimiyat o'zboshimchaligi yo'qligi bilan tavsiflanadi;
- “huquq hukmronligi” prinsipining asosida “qonun va sud oldida barchaning tengligi” g'oyasi yotadi;

- “huquq hukmronligi” va qonuniylik ruhi ustun bo'lgan Angliya shu jihati bilan boshqalardan farqlanadiki, bu ham bo'lsa, aynan Angliya sudlarining qarorlari Angliya Konstitutsiyasining umumiy prinsiplarini shakllantirgan [2].

Zamonaviy ingliz sudya-olimlaridan biri Tom Bingxem (1933–2010)ning ta'rificha huquq ustuvorligiga qonun hujjatlarining mazmuniga e'tibor berish kerakligiga urg'u beradi. Qonun hujjatlaridagi normalar huquqni tashkil etishi uchun ular, eng avvalo, insonning tabiiy huquqlarining hurmat qilinishini e'tiborga olishi zarur [3].

Yevropa komissiyasining 2011-yil 25-26 martda “Huquq orqali demokratiya sari” mavzusida bo'lib o'tgan anjumanida Huquq ustuvorligi tusunchasining muhim jihatlariga oydinlik kiritilgan

Xalqaro hujjatlarda qonun ustuvorligining asosiy elementlari sifatida qonun ijodkorligining shaffof, hisobdorlik va demokratik jarayonni qamrab olgan qonuniylikka asoslanishi; huquqiy aniqlik; o'zboshimchalikning taqiqlanganligi; mustaqil va xolis odil sudlovning ochiqligi; uningdek, ma'muriy hujjatlar ustidan sud nazoratining o'rnatilganligi; inson huquqlarini hurmat qilish va kamsitmaslik hamda qonun oldida tenglik hisoblanadi.

So'nggi yillarda yurtimizda qonun ustuvorligini ta'minlash hamda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashning zarur normativ-huquqiy va tashkiliy institutsional asoslari shakllantirilgan.

Xalqaro miqyosda "Jahon odil sudlov loyihasi" (World Justice Project) xalqaro notijorat tashkiloti "Huquq ustuvorligi" indeksini ishlab chiqish bo'yicha 44 ta subfaktordan iborat bo'lgan 8 ta asosiy indikator asosida olimlar, amaliyotchilar va xalqaro hamjamiyatlar rahbarlari ishtirokida konseptual asos ishlab chiqqan.

Mazkur indeksni tuzishda 2023-yilda 142 ta mamlakatdagi (2022 yilda 139 ta) 148 mingta uy xo'jaligi va 5 mingdan ortiq huquqshunoslar o'rtasida so'rovlar o'tkazilib, huquq ustuvorligi darajasi baholangan [4].

Ushbu holat uning keng qamrovliligi va ishonchliligidan dalolat beradi.

"Jahon odil sudlov loyihasi" xalqaro nohukumat tashkilotining (Vashington) "Huquq ustuvorligi" indeksining 2023 yil uchun e'lon qilgan hisobotida O'zbekiston jami 0,50 ball (2022 yilda 0,49 ball) bilan 142 ta davlat ichidan 66-o'rinni egalladi [5].

O'zbekistonning baholari 4,1 foizga oshib, reytingda eng yaxshi o'sgan davlat bo'ldi. Indeks tarkibidagi jami 8 ta indikatoridan 5 tasida O'zbekistonga berilgan ballar sezilarli o'sgan bo'lsa, 2 tasida o'zgarishsiz qolgan, yana 1 tasida minimal pasayish kuzatilgan. Xususan:

1. Hukumat vakolatlari cheklanganligi indikator doirasida mamlakatimizning ballari o'tgan yilgi bilan solishtirganda 0,38 ballni tashkil qilgan va o'zgarishsiz qolgan. (116-o'rindan 119-o'ringa tushgan).

2. Korrupsiyaning mavjud emasligi indikator bo'yicha ballar 0,46 dan 0,47 ga ko'tarilgan va reytingda o'rin 2 pog'ona o'sgan (66-o'rin).

Bunda tashkilot davlat xaridlari sohasida ochiqlik va raqobat muhiti yaxshilanganini, litsenziyalar berish jarayonida shaffoflik ortganini, korrupsiyaning oldini olish bo'yicha qabul qilingan kompleks choralar ko'rilayotganini ijobiy baholagan.

3. Hukumat ochiqligi indikator doirasida ham mamlakatimizning ballari 0,37 ball bilan o'zgartirilmagan, reytingdagi o'rni 5 pog'ona o'sgan (119-o'rin).

Bunga davlat organlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, qonunchilik hujjatlari loyihalarini muhokama qilishda fuqarolarning ishtirok etishi uchun yaratilgan imkoniyatlar, aholi murojaatlari bilan ishlash tizimining tubdan yaxshilangani ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

4. Fundamental huquqlar indikator doirasida ballar 0,44 dan 0,45 ga oshgan va reytingdagi o'rni esa 109-o'rin.

Ushbu yo'nalishda reytingning o'sishiga sud jarayonida protsessual qoidalarga rioya qilish borasidagi ijobiy o'zgarishlar, fuqarolarning siyosiy mavzularda o'z fikrini erkin ifoda qilish imkoniyatlari oshgani, fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi oshgani, bolalar va majburiy mehnatga chek qo'yilgani ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

5. Tartib va xavfsizlik indikatorida ko'rsatkichlar 0,90 ball bilan o'zgarishsiz qolgan bo'lsada, reytingdagi o'rin 1 pog'ona pasaygan (17-o'rin).

Ushbu indikatorida jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligi oshganligi ijobiy baholangan. Bunda odamlar o'rtasidagi nizolarni o'zboshimchalik bilan hal qilish yoki qasos olish maqsadida zo'ravonlikka yo'l qo'yish (samosud) holatlari mavjudligi mazkur indikatorga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

6. Qonunlarga rioya qilish indikatorida ham 0,44 ball dan 0,45 ball ga o'zgargan va reytingdagi o'rin 2 pog'ona ko'tarilgan (99-o'rin).

Mazkur indikatorida davlat xizmatlarini ko'rsatishda ortiqcha to'lovlar qilishga chek qo'yilgani, ma'muriy tartib-taomillarni amalga oshirish muddatlariga rioya etish yaxshilangani ijobiy baholangan, fuqarolarga tegishli mulklarning sud qarorisiz va kompensatsiya berilmasdan olib qo'yish holatlari mavjudligi qayd etilgan.

7. Fuqarolik odil sudlovi indikatorida ballar 0,50 dan 0,52 ga ortgan, reytingdagi o'rnimiz 3 pog'ona o'sgan (74-o'rin).

Indikator ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga aholining fuqarolik sudlariga murojaat qilish imkoniyatlari oshganligi va fuqarolik sudlarida korrupsiya omili kamayganligi ijobiy baholangan. Fuqarolik sudlarida davlat organlariga yon bosish mavjudligi, sud qarorlari ijrosini samarali va o'z vaqtida amalga oshirish ahvoli, nizolarni hal etishda muqobil mexanizmlar samaradorligining pastligi qayd etilgan.

8. Jinoiy odil sudlov indikator doirasida ballar 0,45 dan 0,44 ga pasaygan va reytingdagi o'rni 4 pog'ona tushgan (71-o'rin) [6].

Xulosa. Yuqorida tahlil qilib chiqqan "huquq ustuvorligi" indeksi indikatorlarida va umumiy indeksda O'zbekistonning o'rnini yanada mustahkamlash uchun quyidagi yo'nalishlardagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Fuqarolarning davlat hokimiyati va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishonchini oshirish uchun har qanday noqonuniy hatti-harakatlarga tezkorlik bilan chora ko'rish amaliyotini yo'lga qo'yish;

2. Nizolarni hal qilish va murojaatlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslarning kasbiy malakasi va kompetentligini oshirish;

3. Xususiy mulkning noqonuniy olib qo'yilishidan saqlanish, xususiy mulkdan faqatgina to'liq va adolatli kompensatsiya evaziga jamiyat ehtiyojlari uchun foydalanilishi mumkinligi haqida qat'iy normani konstitutsiya darajasida belgilash va amal qilish;

4. Sudning haqiqiy mustaqilligini hududlarda ta'minlash hamda sudyalarni har qanday tashqi ta'sir va tazyiqlarda himoya qilish choralarini ko'rish;

5. Odil sudlovni amalga oshirish jarayonida taraflarning mavqei yoki ijtimoiy- iqtisodiy ahvoriga qarab diskriminatsiya qilish holatlariga keskin chek qo'yish;

6. Davlat hokimiyati orgarlari va sud qarorlarining o'z vaqtida, kechikmasdan va asoslantirilgan holda chiqarilishini, shuningdek to'liq ijro etilishini ta'minlash;

7. Fuqarolik va iqtisodiy sud ishini yuritishda taraflarning tortishuvchanlik prinsipini yanada mustahkamlash uchun elektron dalillarni sudlar tomonidan maqbul dalil sifatida baholash mexanizmlarini takomillashtirish;

8. Nizolarni sudgacha hal qilish usullarini keng va samarali qo'llash maqsadida raqamli mediatsiya va elektron hakamlik sudi jarayonlarini yo'lga qo'yish.

REFERENCES. ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ.

1. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi// URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
2. Ulug‘bek Mamadaliev. Huquqiy davlatda qonun ustuvorligi bosh mezondir. Academic research in educational sciences, 2022.
3. Mark D. Walters. The Spirit of Legality: A. V. Dicey and the Rule of Law. The Cambridge Companion to the Rule of Law, Cambridge University Press, 2021.
4. Tom Bingham. The Rule of Law. Allen Lane, 2010.
5. Gafurova Nozimaxon. Verhovenstvo prava kak universalnyy prinsip obespecheniya prav cheloveka. Yuridik fanlar axborotnomasi, 2020 2-son.
6. O‘zbekiston huquq ustuvorligi indeksida 14 pog‘ona yuqoriladi // URL: <https://gov.uz/uz/news/view/32541>
7. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. O‘zbekiston “Huquq ustuvorligi” Indeksida MDH mamlakatlari orasida eng yaxshi ijobiy o‘zgarishni qayd etdi // URL: <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-huquq-ustuvorligi-indeksida-mdh-mamlakatlari-orasida-eng-yakhshi-izhobij-ozgarishni-qajd-etdi>

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-4 СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-3-4

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-3-4

«Фундаментал тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz